

UDK 656 (075)

TEXNIKA FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI
QO'LLASHNING AFZALLIKLARI

Alimova Zebo Xamidullaevna (*t.f.n, professor*);

Niyazova Gulxayo Parpiena (*katta o'qituvchi*);

Eshmurodova Baxtigul Saidmurodovna (*fakultet metodisti*)

Toshkent Davlat Transport Universiteti, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ta'lism tizimida innovatsion texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda. Bu yondoshuv o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar to'plashlariga sharoit yaratadi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiya, o'qituvchi va talaba, faoliyat, o'qitish jarayoni, ta'lism texnologiyasi.*

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lism tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirgan, bu axborotlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar, bilim oluvchi talabalarimiz faoliyatini baholashdagi ularning erkin fikirlashga bo'lgan intilishlarini xisobga intilishlarini xisobga olishimizga to'g'ri keladi.

Ta'lism berishda yuqori natijalarga erishish uchun uning maqsad va mazmunini to'g'ri tanlash, hamda bu maqsadlarga erishish usullarini ya'ni ta'lism usullarini tug'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lism usullari deganda pedagog va talabalar hamkorligida amalga oshiriladigan tartibga solingen va maqsadli yo'naltirilgan yagona tizim tushuniladi. Mavjud ta'lism maqsadlari, pedagogik vositalar va ularning natijalari o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rGANISH pedagogik nazariyaning muxim masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rGANISHGA chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lism mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashga, malakasini oshirib borishiga va ongini yanada rivojlantirishiga, ta'lism tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi keraligiga asosiy motiv bo'lib xizmat qilmoqda.

Amaliyotdagि oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki, yangi bilimlarni berish nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida amalga oshirish, keyin esa bahsmunozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy usullarni amalga oshirib, o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash kerak. CHunki

o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi.

Texnika ta'lif yo'nalishlarida talabalarning huquqiy bilimlarini oshirishda yangi pedagogik usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Idrok qilish paytida qancha ko'p sezgi kanallardan foydalanilsa, esda olib qolning bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bilimlar faqat «ma'ruza»lar orqali (passiv tinglash yo'lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin xolos. Agar u ma'ruzalar o'qish (tinglash), namoyish va ko'rgazmali qilish (ko'rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahslashilsa, unda 3 kundan so'ng 75%ini esga tushirish mumkin.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sezgi kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lif tizimida innovatsion texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda. Bu yondoshuv o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar to'plashlariga sharoit yaratadi.

Texnika ta'lif yo'nalish talabalarini – muammoli vaziyatlarga ro'para qilish metodik jihatdan samarali sanaladi. Muammoli vaziyatlarning didaktik imkoniyatlari talabalarni o'rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan fikrlash, masala mohiyatini yorituvchi tarkibiy elementlar o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash, muammoni hal qilish jarayoni – echim tizimi asosida masalani tahlil qilish, echim borasida farazlarni ilgari surish, ularning maqbulligini tekshirish, echimni bayon etish va uni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni tashkil etishga majbur qiladi. Qolaversa, muammoli vaziyatlar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustaqil tahlil qilish, o'quv-bilish faoliyatiga tanqidiy yondashish, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ijodiy fikrlarni ilgari surish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. SHu sababli bugungi kunda ta'lif tizimida muammoli ta'lifdan foydalanish, muammoli ta'lif texnologiyalarini samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Texnika va texnologiyalarga bog'liq barcha ta'lif muassasalarida, jumladan yonilg'i-moylash mahsulotlariga bog'liq bir necha fanlar o'qitilmoqda. Ushbu fanlar toifasiga kiruvchi "Transport vositalarida qo'llaniladigan ekspluatatsion materiallar", "Avtomobilarda ishlataladigan ashyolar", "Neft mahsulotlarining olinishi" va "Gidravlika" kabi fanlarni o'qitish jarayonlarida davr talabiga monand ravishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy èndashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va

ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi. Ta'lif tizimida zamonaviy texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lif texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalr, o'zlarini xulosa qila olsalar, o'zlariga guruh va ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliylatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Umuman texnika fanlarini o'qitishdagi o'quv jarayonida nazariya va amaliyotni birlashtirishda o'tkazish yaxshi natijalar beradi, jumladan: darsning sifati va eng avvalo darsning mazmunini to'liq shakllantirishga va ta'lif maqsadiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.V.Golish «Zamonaviy ta'lif texnologiyalari: mazmun, loyihalash-tirish va amalga oshirish» Ekspress qo'llanma T. TASIS, 2001 yil.
2. B. Ziyomuxammedov, SH. Abdullaeva «Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot» T. «Abu Ali Ibn Sino» 2001 yil.
3. N. Sayidahmedov «Yangi pedagogik texnologiyalari» -T.: «Moliya»2003y.
4. Khamidullaevna, A. Z., & Akhmatjanovich, M. M. I. (2021). Environmental Safety in use Flammable Lubricants. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 83-85.
5. Khamidullaevna, A. Z., Parpiena, N. G., & Kabulovna, S. D. (2022). Study of the Work of the Boundary Layers of Lubricants Materials. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(12), 119-122.
6. Hamidullayevna, A. Z., Kabulovna, S. D., & Parpiyevna, N. G. (2022). Operability of the boundary layers of lubricants during operation.
7. N.Azizzodjaeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.: «Moliya» 2003y.